



UO'K: 634.64+634.451.632.7

XURMODA KOMSTOK QURTI (*PSEUDOCOCCUS COMSTOCKI*)NING FITOSANITAR XAVF TAHLILI

Shaymanov Mashrabjon Shukriddin o'g'li 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada komstok qurti tomonidan xurmoning turli navlarida zarar etkazish darajalari va fitosanitar xavf tahlili natijalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mevali bog', komstok qurti, xurmo, zarar, fitosanitar xavf tahlili.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о степени вредоносности червеца Комстока на различных сортах хурмы и результаты анализа фитосанитарного риска.

Ключевые слова: Плодовый сад, червец Комстока, хурма, вредоносность, анализ фитосанитарного риска.

Abstract. This article presents data on the degree of harmfulness of the Comstock mealybug on various persimmon cultivars and the results of the phytosanitary risk analysis..

Keywords: Fruit orchard, Comstock mealybug, persimmon, harmfulness, phytosanitary risk analysis.

KIRISH

Komstok qurtini tarqalishini va ko'payishini oldini olish maqsadida o'simliklar karantini qoidalariga amal qilish juda muhim hisoblanadi. Ko'chatlarni sotishga zararlangan hududdan 5-10 km uzoqda bo'lgan ko'chatxonalarda yetishtirilgan ko'chatlarni karantin sertifikatlari orqali va fumigatsiya qilingandan keyingina ruxsat beriladi. Zararlangan hududlardan 2-3 km dan kam bo'lmagan masofadagi ko'chatxonalardan ko'chatlar karantin sertifikatlari orqali va fumigatsiya qilingandan so'ng faqat zararlangan hududlarga olib chiqishga ruxsat etiladi. O'simlik qalamchalari faqat toza hududlardan olinadi va albatta brom metil bilan zararsizlantiriladi. Ko'chatlarni tashishda tegishli tashkilotlarning taqsimoti va ko'rsatmasiga va karantin qoidalariga so'zsiz amal qilinishi lozim. Yangi bog'larni barpo qilishda yoki xatolariga ekishda sog'lom ko'chatlardan foydalanish kerak.

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar 2022-2024 yillarda Qashqadaryo va Surxandaryo viloyati, O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himosi agentligi, O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti laboratoriyasida amalga oshirildi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI


Asosiy materiallar 2022-2024 yillar mobaynida Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarining xurmo bog'laridan yig'ildi. Taqdqiqotlarimizda O'zbekistonda eksportbob talab yuqori bo'lgan Zenju-maru., Tamopan, Xiakume xurmo navlari tanlab olindi hamda komstok qurti tomonidan shu navlarda zararlilik darajasi B.E.Murodov, M.Abraxmatov, U.D.Ortiqov, M.S.Murodovlarning uslubi bo'yicha aniqlandi.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Xurmoning (*Diospyros L.*) avlodiga 200 ga yaqin tur kiradi. Subtropik hududlarda xurmoning Kavkaz, Virgin va Sharq turlari uchraydi. Xurmo daraxti uzoq – 100 yil va undan ortiq yashaydi. Sharq xurmosi – subtropik yoki yapon xurmosi nomi bilan ham ataladi va ebenlar – Ebenaceae oilasining *Diospyros* – turkumiga mansub o'simlikdir. O'zbekistonning subtropik bog'dorchiligida *Diospyros* turkumiga mansub xurmoning quyidagi uchta turi ahamiyatli hisoblanadi:

1. Zenju-maru.
2. Tamopan.
3. Xiakume.

Xurmo ekinlarida komstok qurti tomonidan turli xil navlarda har xil darajada zararlanish kuzatildi. Nav bo'yicha 38,3% Zenju-maru, 25,9% Tamopan hamda 20,1% Xiakume navli xurmolar zararlanishi kuzatildi va aniqlandi (1-rasm).



1-rasm Xurmo ekinida komstok qurti tomonidan turli xil navlarda zararlilik darajasi

Xurmo zararkunandalarga qarshi uyg'unlashgan kurash choralari zararkunandalar populyatsiyasini boshqarishning barcha mavjud usullaridan foydalanishni o'z ichiga oladi, bunda pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish, shu bilan birga rentabellik, hosil sifatini saqlab qolish dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi (1-jadval)



1-jadval

Xurmoda fitosanitar xavf tahlili asnosida uyg'unlashgan usulda boshqarish bosqichlari

T/r	Ekin/Zararkunanda rivojlanish bosqichlari	IPM amaliyoti bosqichi
1.	Ekishdan oldin	
		1.Yozda begona o'tlarni olib tashlash, shuningdek hasharotlar bosqichlarini yo'q qilish uchun chuqur haydash.
2.	Ekish paytida	
	<i>So'ruvchi zararkunandalarga qarshi</i>	1. komstok qurtiga chidamli genotiplarni o'z vaqtida ekish.
3.	Vegetativ o'sish bosqichi (30-50 kun)	
	<i>So'ruvchi zararkunandalar</i>	1. Zararkunandalar va tabiiy dushman populyatsiyasini feromon tutqichlar yordamida kuzatish. 2. O'simlik asosidagi moddalar bilan ishlov berish. 3. Zararkunanda turiga qarab insektitsid tabiatli fitokimyoviy vositalardan foydalanish.
4.	Generativ o'sish bosqichi (40-60 kun)	
	<i>So'ruvchi zararkunandalar</i>	1. O'simlik asosidagi fitokimyoviy moddalardan foydalanish mumkin.
5.	Gullashning so'nggi bosqichlari (10-15 kun)	
	<i>So'ruvchi zararkunandalar</i>	1. Feromon tutqichlardan foydalanish lozim. 2. Parazit va yirtqich entomofaglarni qo'llash. 3. Tavsiya etilgan kimyoviy insektitsidlardan foydalanish kerak.
6.	Meva tugish payti (30-45 kun)	
	<i>So'ruvchi zararkunandalar</i>	1. Feromon tutqichlardan foydalanish lozim. 2. Parazit va yirtqich entomofaglarni qo'llash.
7.	Meva etilishi (15-20 kun)	
	<i>So'ruvchi zararkunandalar</i>	1. Zararlangan mevalarni fitosanitar yo'l orqali yo'qotish.

Komstok qurtiga qarshi 1 gektar maydonda a sxema bo'yicha ko'rsatilgan nuqtaning har 10 m² da 1-5 tup daraxtning 4 tomonidan 10 ta barglaridan, to'kilgan va to'kilmagan mevasidan, o'suvchi novdalaridan, daraxt tanasi yoriqlaridan, eski tana po'stloq taglaridan, payvand qilingan joylaridan hamda daraxtning boshqa shikastlangan qismlarini tekshirishiriladi.

**ADABIYOTLAR:**

1. Козубаев Ш., Муродов Б.Э., Садуллаев А., Абрахматов М. Ўсимликларнинг карантин ва бошқа зарarli организмларини аниқлашда экспертиза усуллари., ТошДАУ тахририят нашриёти, Тошкент 2010 й. – 14 б.
2. Муродов Б.Е., Абрахматов М., Ортиқов У.Д., Муродов М.С. Ўзбекистонда комсток қуртининг зарари ва унга қарши биологик кураш чоралари., ТошДАУ тахририят нашриёти, Тошкент, 2011 й. 11 б.
3. Ходжаев Ш.Т. Қишлоқ хўжалигида пестицидларни тадқиқот ўтказиш усул ва шартлари. – Тошкент, 2020. – 150 б.
4. Shaymanov M.Sh., Yaxyoyev J.N., Komstok qurti (*Pseudococcus comstocki* Kuwana.) ning foydali harorat yig'indisi // Fitosanitar xafsizligida ilmiy innovatsion texnologiyalar Xalqaro ilmiy-texnik anjuman – Toshkent, 2024. – Maxsus son (10). -.192-195 b
5. Shaymanov M. Sh., Natural entomophagous insects in pomegranate and date palm agrocenoses of the southern regions of uzbekistan and their role in pest control//Journal of Multidisciplinary Sciences and Innovations, 2026.02.27 ISSN:2751-4390.
6. Намозов И.Ч. Хурмо етиштириш: илмий нашр/ “Агробанк” АТБ. – Тошкент: "Тасвир" нашриёт уйи, 2021. – 84 б.